

KASB HUNAR MAKTABLARI O'QUVCHILARINING SHAXSIY MOTIVATSIYASINI OSHIRISH, TA'LIM JARAYONI METODIKASINI O'ZGARTIRISH YO'LLARI

Умарова Нигорам Маҳаммадовна

Фарғона вилояти, Олтиариқ 2-сон касб-хунар мактаби

тарих фани ўқитувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7481067>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimida keng qamrovda olib borilayotgan ishlar, ularning samaradorligi, hamda kelajakda professor-o'qituvchilar va O'quvchi-yoshlarni ta'limga yangicha yondashish va investitsiya kiritish haqida fikr-mulohazalar, shuningdek o'quvchilarni o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish to'g'risida yoritilgan.

Eng yaxshi investitsiya bu ta'limga kiritilgan investitsiyadir. Barchamizga ma'lumki hozirgi kunda ta'lim tizimida keng qamrovda islohatlar olib borilmoqda. Lekin, tan olish joizki bu soxada kamchilik va muammolarimiz ham talaygina. Bu muammolarga ayni paytda yechim topmasak kelajakda professor-o'qituvchilar, shuningdek o'quvchi-yoshlarga ham ta'limga yangicha yondashish va investitsiya kiritishga to'sqinlik qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarori loyihasi joylashtirilgan. Hujjatda qayd etilishicha, amalga oshirilayotgan ishlarning tahlili oliy ta'lim tizimi oldida turgan vazifalarni samarali tashkil qilish, amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammo va kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Xususan:

- **birinchidan**, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitishni tashkil etish jarayoni, ta'lim berayotgan professor-o'qituvchilar tomonidan fan mazmunini yetkazish va ta'lim olayotgan o'quvchilarni o'zlashtirish hamda ularning bilimini to'g'ri baholash tizimi talab darajasida emas; o'quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish borasida ta'lim dasturlari mazmuni va ularni yangilab borish sur'atlari bugungi kunda izchil rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlari va mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga to'laqonli javob bermaydi;
- **ikkinchidan**, oliy ta'lim va o'rta maxsus muassasalari innovatsion va texnologik g'oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmaganligi, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarning tizimli o'rganilmaganligi sohada ilm-fan yo'nalishlarining rivojlanmaganligiga olib keldi;

- **uchinchidan**, oliy va o'rta maxsus ta'limining ijtimoiy mavqei va nufuzi, xodimlari mehnatini rag'batlantirish tizimi past darajada bo'lganligi aksariyat holatlarda sohada ko'plab muammolarning saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda;
- **to'rtinchi**, markazlashgan holda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari rahbar kadrlarini tayinlash, ularning tashkiliy tuzilmalarini tasdiqlash tartiblari ta'lim muassasalari boshqaruvini samarali tashkil etish va zimmasiga yuklatilgan vazifalarning jadal sur'atlarda ijrosini ta'minlashda muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda;
- **beshinchidan**, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalaridagi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnika va texnologiyalari boshqaruvi, o'quv-jarayonini tashkil etish, dasturiy vositalarni ta'lim mazmuniga singdirish masalalari talab darajasiga yetkazish kerak.

Yuqoridagi muammo va kamchiliklarga yechim sifatida o'z takliflarimizni bildirib o'tamiz.

- Kasb hunar maktablarining kutubxonalaridagi ilmiy adabiyotlarni boyitish, ko'zi ojiz o'quvchilar uchun brayl shaklidagi kitoblar sonini ko'paytirish va kelajakda shunday o'quvchilarni oliy ta'limga jalb qilish (ular ham oliy ma'lumotli bo'lishni xoxlashadi).

- Ilmiy adabiyotlar va darsliklarni audio variantlarini yaratish.

O'quvchilarning shaxsiy motivatsiyasi va manfaatdorligini oshirish uchun dars jarayonini induvidial tarzda o'tkazish, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasidagi masofani qisqartirish ya'na birgalikda harkat qilish, dars mobaynida o'quvchilarni rag'batlantirish, darsni kundalik hayotga bog'lagan holda tushuntirish kerak.

Motivatsiya shaxsning faoliyatini, xulq-atvorini tartibga soluvchi yetakchi omil hisoblanadi. Har qanday pedagogik o'zaro ta'sir o'quvchi bilan faqat uning motivatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali bo'ladi. o'quvchilarning obyektiv bir xil harakatlarining orqasida butunlay boshqacha sabablar bo'lishi mumkin. Xuddi shu harakatning rag'batlantirish manbalari butunlay boshqacha bo'lishi mumkin. Ta'lim faoliyatining muvaffaqiyati yoki samaradorligi ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik omillarga bog'liq. Motivatsiyaning kuchi va tuzilishi ham ta'lim faoliyati muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Yerkes-Dodson qonuniga ko'ra, ta'lim faoliyatining samaradorligi bevosita motivatsiya kuchiga bog'liq.

Barbara Devisning "Ta'lim vositalari" da o'quvchilaringiz bilan munosabatlarni o'rnatishning bir qancha usullari mavjud.

Xulosa sifatida, unchalik murakkab bo'lmagan va juda sodda bo'lmagan ishni tayinlash, o'quvchilarga ishni yakunlash uchun muvaffaqiyat tuyg'usini berib, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismontas BB Pedagogik psixologiya. Yordamchi eslatmalar. - M.: Moskva ochiq ijtimoiy universiteti, 2001. - [elektron resurs]. - Kirish rejimi: http://ido.rudn.ru/psychology/pedagogical_psychology/12.html.
2. Leontiev A.N. Faoliyat, ong, shaxsiyat. - M.: Poliizdat, 1975. - S. 112-115.
3. Lukashenko M.A. Ta'lim xizmatlari bozoridagi oliy ta'lim muassasasi: boshqaruvning dolzarb muammolari. - M.: Bozor DS, 2003. -- 32p.